

BO’LAJAK TARBIYACHILARDA IJODIY FIKRLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Xolmatova Salima Kuzibayevna
Esonova Fotima Shoydali qizi

Annotasiya: Bugungi dunyo misli ko'rilmagan tezlikda o'zgarmoqda - va butun dunyo bo'ylab millionlab tarbiyachilar uchun hozir bolada ijodkorlikning afzalliklari va ahamiyatini qabul qilish uchun tarixdagi eng muhim davr bo'lishi mumkin. Ijodning o'zi juda keng mavzu. Ijodkorlikka ma'lum bir mahorat sifatida qarash va siz chizish yoki qo'shiq aytishingiz mumkinmi, deb o'ylash oson bo'lsa-da, siz ijodiy bo'lishingiz kerak, haqiqat esa ancha nozik. Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilar nafaqat o'zida balki tarbiyalanuvchilarga ham ijodiy fikrlash madaniyatini singdirish haqida ma'lumot aks etgan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, ijodiy fikrlash, kreativlik, salbiy fikrlash, ijodkorlik, san'at

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: Современный мир меняется с беспрецедентной скоростью, и для миллионов педагогов во всем мире сейчас самое важное время в истории, чтобы осознать преимущества и важность творчества для детей. Само творчество — очень обширная тема. Хотя легко думать о творчестве как о конкретном навыке и думать, что вы можете рисовать или петь, вы должны быть творческими, но правда гораздо более тонкая. В данной статье содержится информация о воспитании культуры творческого мышления не только у будущих учителей, но и у учащихся.

Ключевые слова: педагог, творческое мышление, творчество, негативное мышление, творчество, искусство.

FORMING A CULTURE OF CREATIVE THINKING IN FUTURE EDUCATORS

Abstract: Today's world is changing at an unprecedented rate - and for millions of educators worldwide, now may be the most important time in history to embrace the benefits and importance of creativity in children. Creativity itself is a very broad topic. While it's easy to think of creativity as a specific skill and think that you can draw or

sing, you have to be creative, but the truth is much more subtle. This article contains information about inculcating the culture of creative thinking not only in the future teachers, but also in the students.

Key words: educator, creative thinking, creativity, negative thinking, creativity, art

Kirish. Tarbiya har qanday sharoitda ham nurli cho‘qqilarga yetishish yo‘lini ko‘rsatishi bilan birga kishi zehnini, fikrini qilich kabi o‘tkir qiladi va har bir shaxsga ma’naviy ozuqa berib, madaniyat, ma’rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, yomon ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va odobli bo‘lishga xizmat qiladi. Natijada kishilar har yerda aziz va hurmatli bo‘ladilar. Kishi hayotini to‘g‘ri yo‘lga soladigan vosita bu – tarbiyadir.

Shuning uchun ham xalq orasida tarbiya orqali oliy fazilatlarga, ulug‘likka va orzu-istaklarga erishgan buyuk kishilar qadrlanadi. Tarbiya yaxshi-yomonni tanish, halol-haromning farqiga borish, do‘stlik va qarindosh-urug‘ning fazilatlarini anglash, qonun-qoidalarni tushunish, haq-huquqlarini bilish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarni ham kamol toptiradi. Bizda bola tarbiyani oilada ota-onadan, maktabda ustoz-murabbiydan oladi. Shu o‘rinda tarbiya borasida tarbiyachilarning o‘rnini alohida ta’kidlash zarur. Tarbiyachi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda istiqbolli rejalarni ishlab chiqishi va unda har bir tadbirning mazmuni, muddatlari, mas’ul ijrochilar va mo‘ljallanayotgan tadbirlarning samaradorlik darajasiga ahamiyat berishi muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan bo‘lajak tarbiyachi o‘quv-tarbiya jarayonlarini tahlil qilish, turli uslublarni qo‘llash, ongli ravishda faol fikr yuritish, bilimni safarbar qilish, o‘zi bajaradigan barcha ish jarayonlarini mustaqil ravishda amalga oshirish kabi tajriba va pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur.

Tarbiyachi kim? Avvalambor, bolalar va ularning ota-onalari bilan yaxshi aloqa o‘rnatishni. Birinchidan, tarbiyachi o‘z “erkatoylariga” ega bo‘lmasligi kerak, aks holda u bolalar ko‘z oldida o‘z obro‘cini yo‘qotadi. Ikkinchidan, agar maktab o‘quvchisiga jurnalga baho qo‘yib, maktabga ota-onani chaqirish haqidagi do‘q-po‘pisalar bilan va yana boshqa jazolar bilan ta’sir o‘tkazish mumkin bo‘lsa – maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar bilan bunday qilishning iloji yo‘q. Savodsiz pedagog “zulmi”ga qarshi chiqqan guruhning jamoaviy qasosi nimaligini o‘zingizda sinab ko‘rishingizga to‘g‘ri keladi. Zamonaviy bog‘chalarda bor-yo‘g‘i bitta injiq bolaning to‘xtovsiz yig‘ilari ota-ona yoki rahbariyat oldida uyalib qolishingizga olib keladi. Ularning tarbiyachi haqidagi fikri esa, hamma vaqt ham, katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, tarbiyachi hamma bolalarning, hattoki eng chiqisha olmaydigan va xudbinlarining ham hurmati va ishonchiga sazovor bo‘lishi muhim. Bolalar bog‘chaga “erta sahardan yugurishlari” uchun ularni qiziqitira olmaysizmi – ishingiz do‘zaxga aylanadi. Yoki bo‘lmasa, norozi ota-onalar bilan “kurashishishingizga” to‘g‘ri keladi va oxir oqibatda sizni ishdan bo‘shatib yuborishadi. Bundan tashqari, ta’limni

boshqarish bo'yicha davlat organlari bolalar bilan ishlashga juda va juda katta e'tibor qaratishadi. Tarbiyachi har oy bolalar tarbiyasi, ularning harakatlanish, nutqiy, fikrlash va boshqa xususiyatlariga aloqador ishlar bo'yicha hisobot topshiradi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining ish haqi uning ma'lumot darajasidan kelib chiqadi. Nisbatan yuqoriroq darajani qo'lga kiritish uchun esa, katta ish haqiga da'volarni asoslab bergan holda, bir tog' kog'ozlarni to'ldirishga to'g'ri keladi. Bunday asoslarga da'vogarning katta ish haqi evaziga bolalar bilan tarbiya ishlarini olib borishda qo'llamoqchi bo'lgan usullari, shu vaqtgacha qilib kelgan ishlari haqidagi hisobotlar ham kiradi.

Ijodiy fikrlash (kreativlik) va salbiy fikrlash tarbiyachilarda. Yillar mobaynida turli sohalaridagi ijodiy mahsulning tahlili va ahamiyati haqida salmoqli tadqiqotlar o'tkazildi. Ilmiy adabiyotda qabul qilingan tavsifga ko'ra, ijodiy mahsulot muayyan ijtimoiy muhitda qabul qilingan normalarga muvofiq ham yangicha, ham foydalidir. Maktabgacha ta'lim sharoitida, ijodiy faoliyat turli kundalik shakllarni olishi mumkin: masalan, yurish, yozish, chizish, musiqa va boshqa san'at shakli orqali ifodalash faoliyati; yangi bilim va tushuncha yaratish; ochiq muammolarning turli shakllariga yangicha yechim taklif etish. O'quv jarayonidagi ushbu ijodiy faoliyatning shakllari sohalararo xususiyatga ega bo'lib, san'at va fan darslari kabi an'anaviy fanlar bilan kifoyalanmaydi. Tashkilotchilik borasidagi tadqiqotlar ish muhitining ba'zi xususiyatlari ishchilarning ijodkorligiga ta'sir qilishini namoyish etgan. Faoliyatga berilgan norasmiy munosabat, maqsad qo'yish, ijobiy rag'batlantirish vazifani bajarishdagi nisbatan mustaqillik, munosib e'tirof va yangi go'yalar berishni qo'llab-quvvatlashning barchasi ijodiy fikrlashning muhit bilan bog'liq yordamchi omillaridir. Va aksincha, yangi g'oyalarni tanqid qilib tashlash, mavjud ishlarning ahvoliga urg'u berish, rahbariyatning ortiqcha ehtiyotkorligi, muddatlar bosimi kreativlikni bo'g'uvchi muhit omillaridandir. Xuddi shu muhit omillari tarbiyalanuvchiga katta ta'sir o'tkazadi, deyish mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, ijodiy fikrlash tarbiya va bilim yaratuvchi jamoalardagi hamkorlik orqali muvaffaqiyatli vujudga kelishi mumkin. Ya'ni, bog'cha va maktablar bilim yaratuvchi tashkilot sifatida faoliyat yuritisa va u yerda o'quvchilar go'yalar bilan to'g'ridan to'g'ri va davomiy faoliyat yuritisa, vujudga keladi. Ta'lim jarayonining integral qismi o'laroq, bilim yaratish maqsadli faoliyatga aylanganda, tarbiyachilar o'z jamoasiga yangi g'oyalarni taqdim etadilar hamda ushbu g'oyalarni davomiy takomillashtirib borishi uchun ishlaydilar.

Ijodiy fikrlash (kreativlik)ni tarbiyachilarga singdirish.

- ✓ Har bir mavzu bo'yicha ijodkorlikni to'qing
- ✓ Faoliyat va o'rganish usullarini individual tarbiyalanuvchilarga moslashtirish

✓ **Kollektivgiz nuqtai nazari bilan o'zingizni sinab ko'ring, solishtiring**

✓ **Guruh loyihalarini qabul qiling, ularni amalda sinang**

Sinfda ijodkorlikni o'rgatish va rag'batlantirishning boshqa usullariga quyidagilar kiradi:

- ✓ Jurnal uchun vaqt ajrating
- ✓ Har kuni besh daqiqa zehnlilikda ishtirok eting
- ✓ Aqliy hujum seanslarini yarating
- ✓ Ishtirok etishni rag'batlantirish uchun o'yinlardan foydalaning
- ✓ Tavakkalchilikni rag'batlantirish
- ✓ Sinfni tez-tez tark eting
- ✓ Bolalarni fikrlashiga ruxsat bering
- ✓ Vizual vositalardan foydalaning
- ✓ Savollarni rag'batlantirish

Xulosa. Bizning dunyomizning o'zgarish tezligi keyingi o'n yil ichida faqat eksponent ravishda o'sishda davom etmoqda va etadi. Iqlim o'zgarishidan tortib, tengsizlik va keng ko'lamli mojarolargacha, barcha mumkin bo'lgan sohalarda ilg'or texnologiyalargacha bo'lgan dunyodagi eng katta muammolarni hal qilish uchun ishlayotganimizda, bugungi bolalar biz hali tasavvur qilmagan kasblarni egallaydilar. Shuni yodda tutgan holda, biz kelajak avlodga hayotning barcha jabhalarida ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish imkoniyatini berishimiz kerak - va bu bola maktabga kelganida emas balki tarbiyachidan olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaufman, J. (2012), «Counting the muses: development of the Kaufman Domains of Creativity Scale (K-DOCS)», *Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts*, Vol. 6/4, pp. 298-308
2. Daminova M., Adambyekova T. «O'yin mashg'ulotlari» T.: «O'qituvchi» 1993y
3. Logipova V.I. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» T.: «O'qituvchi» 1992y
4. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5014.htm>